

**XX ASRNING 20-30 YILLARIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOTIGA  
DOIR**

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.011>

*Karimova Shahnoza Toir qizi*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi*

*Akbayeva Zebiniso Djalolitdinovna*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asrning 20–30-yillarida Turkistonda madaniy hayotning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Bu davrda maorif, adabiyot, san’at va matbuot sohalarida muhim o’zgarishlar yuz berdi. Yangi sovet madaniy siyosati ta’sirida milliy madaniyat shakllanishi bilan birga, an’anaviy qadriyatlar ham muayyan darajada o’zgarishga uchradi. Jadidchilik harakati, savodsizlikni tugatish kampaniyalari va teatr hamda adabiyotning rivoji davr madaniy hayotining muhim jihatlari sifatida yoritiladi.

**Kalit soʻzlar:** Turkiston, madaniy hayot, XX asr, jadidchilik, maorif, adabiyot, san’at, sovet siyosati, matbuot, islohotlar.

**Аннотация:** В данной теме рассматриваются особенности культурной жизни Туркестана в 20–30-е годы XX века. В этот период произошли значительные изменения в сфере образования, литературы, искусства и печати. Под влиянием советской культурной политики формировалась новая система ценностей, что привело к трансформации традиционной культуры. Особое внимание уделяется движению джадидизма, ликвидации неграмотности, а также развитию театра и литературы.

**Ключевые слова:** Туркестан, культурная жизнь, XX век, джадидизм, образование, литература, искусство, советская политика, печать, реформы.

**Abstract:** This topic examines the cultural life of Turkestan during the 1920s–1930s. The period was marked by significant transformations in education, literature, art, and the press. Under the influence of Soviet cultural policies, new cultural norms emerged while traditional values underwent notable changes. The study highlights the Jadid movement, literacy campaigns, and the development of theater and literature as key aspects of the cultural landscape.

**Keywords:** Turkestan, cultural life, 20th century, Jadidism, education, literature, art, Soviet policy, press, reforms.

XX asrning 20–30-yillari Turkiston tarixida tub burilishlar davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda mintaqada siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda keng koʻlamli o’zgarishlar yuz berdi. Sovet hokimiyatining oʻrnatilishi bilan jamiyatning

barcha sohalarida, xususan, madaniy hayotda yangi yo‘nalish va tamoyillar shakllana boshladi. Natijada, an’anaviy madaniyat va yangi sotsialistik g‘oyalar o‘rtasida murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni yuzaga keldi. Mazkur davrda maorif tizimini isloh qilish, savodsizlikni tugatish, yangi tipdagi maktablarni tashkil etish, adabiyot va san’atni mafkuraviy jihatdan qayta shakllantirish kabi jarayonlar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, jadidchilik harakati vakillari tomonidan ilgari surilgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari ham jamiyat taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Biroq, 1930-yillarga kelib, siyosiy repressiyalar kuchayib, ko‘plab ziyolilar ta’qib ostiga olindi, bu esa madaniy hayot rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, XX asrning 20–30-yillarida Turkistonda madaniy hayot bir tomondan yangilanish va rivojlanish jarayonlari bilan tavsiflansa, ikkinchi tomondan mafkuraviy bosim va cheklovlar bilan murakkablashgan edi. Ushbu mavzuni o‘rganish o‘sha davr madaniy jarayonlarining mohiyatini chuqur anglash hamda bugungi madaniy taraqqiyot ildizlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik davrida XX asrning 20–30-yillarida Turkistonda madaniy hayot masalasi bo‘yicha qator o‘zbek tarixchilari, adabiyotshunoslari va madaniyatshunos olimlarning asarlari, monografiyalari hamda dissertatsiyalari tahlil qilindi. Ularning tadqiqotlarida mavzu turli jihatlarida — jadidchilik, maorif, adabiyot, san’at va sovet madaniy siyosati doirasida yoritilgan. Avvalo, jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish masalalarini o‘rganishda Behbudiy Mahmudxo‘ja, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi tarixiy shaxslar merosi asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik davrida esa ularning faoliyatini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilgan zamonaviy olimlar paydo bo‘ldi.

Xususan, tarixshunoslikda Dilorom Alimovanning ilmiy ishlari Turkiston tarixining ijtimoiy-madaniy jihatlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Rustam Shamsutdinov o‘z tadqiqotlarida sovet davrining siyosiy va madaniy jarayonlarini, jumladan repressiyalar masalasini keng ochib bergan. Adabiy-madaniy jarayonlarni o‘rganishda Naim Karimovning jadid adabiyoti va qatag‘on davri ijodkorlariga bag‘ishlangan monografiyalari alohida ahamiyatga ega. U jadid adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodini tiklashda katta hissa qo‘shgan. Bundan tashqari, Baxodir Ergashev, Qahramon Rajabov kabi tadqiqotchilarning dissertatsiya va ilmiy maqolalarida ham Turkistonning 20–30-yillardagi madaniy hayoti, xususan, maorif tizimi, matbuot va madaniy siyosat masalalari yoritilgan. Umuman olganda, mustaqillik davri tarixshunosligida mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar keng qamrovli bo‘lib, ular jadidchilik harakati, sovet madaniy siyosati, repressiyalar va milliy madaniyat taraqqiyoti masalalarini kompleks tarzda o‘rganishga xizmat qildi.

Mafkuraviy-g‘oyaviy ahamiyati kuchli bo‘lgan madaniy-ma’rifiy va oqartuv muassasalar faoliyatiga sovet davlati ahamiyat bilan qarab uning faoliyatini yaxshilash va ish jarayonini tartibga solish maqsadida tahlil etilayotgan yillarda bir qator qarorlar qabul

qildi. Jumladan, 1923-yilda bo‘lib o‘tgan VKP (b) XII syezdi madaniy muassasalar davlat tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi hamda buni chuqurroq targ‘ib qilishga tezroq o‘tishni tavsiya qildi. V. I. Lenin tomonidan ishlab chiqilgan madaniy inqilobni rivojlantirish rejasida maktabdan tashqari ta‘limga: savodsizlikni tugatish, madaniy-oqartuv muassasalari shoxobchalarini ko‘paytirish va mustahkamlash, davlat mablag‘larini xalq maorifi manfaatlarida qayta taqsimlashga katta o‘rin berildi<sup>35</sup>.

Mamlakatda klublar qurilishini avj oldirishda VKP (b) XIII syezdi 1924-yil may oyida qabul qilingan “Targ‘ibot–tashviqot ishlari to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasi muhim rol o‘ynadi. Mazkur syezdi klub muassasalariga partiyaning yangi a‘zolari bilan ommaviy targ‘ibot va madaniy-oqartuv ishlarini avj oldirish maqsadida madaniy oqartuv muassasalar faoliyatining turlaridan keng foydalanishni topshirdi.

1923-1924-yillardan boshlab maorif xarajatlariga davlat tomonidan mablag‘ ajratish muntazam ravishda o‘lib bordi. 1923-1924-yillarda bu xarajatlar davlat byudjeti xarajatlarining 11% ini (241,5 mln. so‘m), 1924-1925-yillarda — 11,7% (358,6 mln. so‘m), 1925-1926-yillarda – 12,4% (520 mln. so‘m) ni tashkil etdi.

Mamlakatda ommaviy klub muassasalari va tashkilotlarini vujudga keltirishga doir barcha ishlar kommunistik partiya rahbarligi ostida olib borildi. Sovet ittifoqi milliy respublikalarda xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy xususiyatlariga javob beradigan hamda ularning milliy traditsiyalari, ruhiy xususiyati va turmushiga muvofiq keladigan madaniy-oqartuv muassasalarining maxsus turlarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratdi. Bunda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalarida “Qizil choyxona”lar, “Qizil o‘tov”lar asosiy madaniyat o‘chog‘i bo‘lib qoldi.

“Qizil choyxona”larda oddiy ish formalaridan foydalanildi. Choyxona sotsializmni targ‘ib qilgan shiorlar, plakatlar bilan bezatilar, bir piyola choy atrofida yig‘ilganlar jamoa bo‘lib gazeta va jurnallar tinglaragitatorlar bilan uchrashar, dastlabki kinofilmlarni tomosha qilish edilar. Tez orada choyxonalar radiolashtirildi. Shuningdek katta choyxonalar musiqalar tinglash uchun patefonlar bilan ham ta‘minlandi.

Ko‘chma madaniy-oqartuv muassasalari – “qizil karvon”, “qizil barja”, agitvagonlar katta ahamiyat kasb etdi. Ular O‘rta Osiyoning bepoyon kengliklari bo‘ylab ko‘plab shaharlar, tumanlar, posyolkalar, ovullar, qishloqlar va boshqa aholi manzilgohlarida xizmat qildi.

O‘rta Osiyo respublikalarida milliy klublarni rivojlantirishda 1920-yillardanoq dastlabki yutuqlarga erishildi. Milliy klublar oldida nihoyatda muhim, faqat unga xos bo‘lgan vazifalar turardi. Xotin-qizlarni ozod qilish, ularni jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lishlariga erishish ana shunday vazifalardan edi. Xotin-qizlar klublarining boshqa klub

<sup>35</sup>Yuldashyeva M. “O‘zbekiston milliy madaniyati: rivojlanish yo‘nalishlari va muammolari (XX asrning 20-yillari). – Toshkent. 2004. – B. 28.

muassasalaridan farqi avvalo shundan iborat bo'ldiki, u faqat yangi sovet turmushini targ'ib qilish o'chog'i bo'libgina qolmay, balki sovet turmush tarzini qaror toptirishda amaliy yordam bera boshladi: huquq va tibbiy konsultatsiyasi, ambulatoriya, tikuv artellari, bolalar bog'chasi hamda xotin-qizlar uchun kurslar kabi muassasalar kompleksi ham hisoblanar edi. Bunday klublar mahalliy xotin-qizlarni xalq xo'jalik ishlariga jalb etishda ham muhim rol o'ynadi. Mazkur klublarining o'zida xotin-qizlarga ishlab chiqarish maktablari va kurslar, hunar ustaxonalari va artellar ochildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1925-1941-yillar davomida xalq ta'limi tizimidagi maktablar soni izchil ravishda oshib borgan. Jumladan, 1924-1925-o'quv yilida O'zbekistonda 160 ta sovet maktabi faoliyat yuritib, ularda 17 209 nafar o'quvchi tahsil olgan. 1941-yilga kelib esa maktablar soni keskin ko'payib, 5 504 taga yetgan, o'quvchilar soni esa 1 million 315 ming nafarga yetgan<sup>36</sup>.

Biroq raqamlar ortidan quvish va shoshma-shosharlik oqibatida umumiy ta'limni joriy qilishda ko'pgina jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmay qoldi, o'qishni tashlab ketayotgan o'quvchilar soni (ayniqsa mahalliy millat yoshlari orasida) ortib bordi, ko'pgina maktablarda o'qitish saviyasi mutlaqo talabga javob bermasdi, chunki muallimlarning bilim darajasi yetarli emas edi. Ayniqsa ularning moddiy ahvoli yomon edi, maktablar son jihatdan muttasil oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning o'quv-moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.

Madaniy sohalarni mafkura izmiga solish din masalalarini ham chetda qoldirmadi. Marksizmga asoslangan sovet mafkurachilari islomning yuksak ilmiy-madaniy mavqeyini inkor etish uchun unga nisbatan "sotsialistik turmush tarziga mos kelmaydigan" eski, qoloq reaksiyon g'oyalar yozgan ustqurmani tanlab oldilar. Markazning bu ustqurmasi O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullangan mashhur sharqshunos olim V. V. Bartoldning islomni jahon tarixining bir ko'rinishi bo'lgan musulmon madaniyati sifatidagi ta'rifi e'tiborga olinmadi. O'sha paytlarda ilg'or ruhoniylarning bergan maslahatlari, ularning tinchlik-totuvlik bilan ta'lim islohotlarini amalga oshirish to'g'risidagi takliflari rad etildi. Chunki rasmiy hukumat ulardan xavfsirab, bu, yangi sharoitga moslashib olishga urinayotgan ruhoniylarning ayyor siyosatidir, deb baholadi.

XX asrning 20–30-yillarida Turkistonda madaniy hayot murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Bu davr bir tomondan madaniy sohada sezilarli o'zgarishlar, jumladan, ta'lim tizimining kengayishi, savodsizlikni tugatish siyosati, yangi maktab va madaniy muassasalarning tashkil etilishi bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, sovet mafkurasi ta'sirida milliy madaniyatning cheklanishi bilan ham ajralib turadi. Mazkur davrda jadidchilik harakati madaniy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u milliy uyg'onish, ma'rifat va zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga katta

<sup>36</sup>O'zbekiston SSR tarixi. –Тошкент, 1974. – Б. 460.

hissa qo'shdi. Jadidlar tomonidan maktablar ochilishi, adabiyot va teatr rivojiga e'tibor qaratilishi Turkiston xalqlarining madaniy darajasini oshirishda muhim omil bo'ldi.

Shu bilan birga, 1930-yillarga kelib siyosiy repressiyalar kuchayib, ko'plab ziyolilar va ijodkorlar ta'qib ostiga olindi. Bu esa madaniy hayot rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatib, milliy madaniyatning tabiiy taraqqiyotini izdan chiqardi. Madaniy qurilish jarayonida ijobiy natijalar bilan bir qatorda, mafkuraviy bosim va biryoqlama siyosat ham ustuvor bo'lib qoldi. Umuman olganda, XX asrning 20-30-yillarida Turkistonda madaniy hayot yangilanish va rivojlanish bilan birga, siyosiy va mafkuraviy cheklovlar ta'sirida shakllangan murakkab tarixiy jarayon bo'lib, uning o'rganilishi milliy tarixni chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldashyeva M. "O'zbekiston milliy madaniyati: rivojlanish yo'nalishlari va muammolari (XX asrning 20-yillari). – Toshkent. 2004. – B. 28.
2. Гулметов Э. Коммунистик қурилиш ва қишлоқ маданияти юксалишининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б. 41.
3. Тиловатов Ф. Совет ҳукуматининг XX аср 20-30 йилларидаги "Маданий инқилоб" сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши. Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 28.
4. Ғойибназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари (20-йиллар таҳлили). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 72.

